



Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi
miqyosida tashkil etilgan

MILLIY IFTIXOR

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasining
MATERIALLAR TO'PLAMI





«Scientific Academy»

Ilm-ma’rifat markazi ©

*“Milliy qadriyatlar va global jarayonlar: Ilmiy yondashuv va integratsion tendensiyalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya doirasida **“Milliy iftixor”** xalqaro ilmiy-amaliy ko‘rik tanlovining*

MATERIALLARI TO‘PLAMI

3- qism

SO‘Z BOSHI

Hurmatli ilm-fan arboblari, tadqiqotchilar, o‘qituvchilar, talabalar va ishtirokchilar! Bugun biz, “Milliy qadriyatlar va global jarayonlar: Ilmiy yondashuv va integratsion tendensiyalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning doirasida o‘tkazilayotgan "Milliy iftixor" ilmiy-amaliy ko‘rik-tanlovida yig‘ildik. Ushbu ilmiy anjuman, asosan, o‘z xalqimizning tarixiy va madaniy merosini saqlash, avlodlardan avlodga yetkazish va milliy qadriyatlarimizni zamonaviy dunyoda yangi yondashuvlar bilan rivojlantirishga bag‘ishlanmoqda.

"Milliy iftixor" ilmiy-amaliy ko‘rik-tanlovi, o‘zining bilimdon va fidoyi ishtirokchilari bilan, milliy merosimizni yanada mustahkamlash va uni kelajak avlodlarga to‘g‘ri taqdim etishdagi ahamiyatiga tayanadi. Bizning tarixiy va madaniy boyliklarimiz, o‘z xalqimizning qadrini anglash va uni dunyoga tanitishda muhim o‘rin tutadi. Bu ko‘rik-tanlov, shuningdek, ilmiy izlanishlar va ijodiy yondashuvlar orqali, milliy qadriyatlarimizni yuksaltirish, ular bilan faxrlanish va bu qadriyatlarni zamonaviy dunyoga moslashtirish imkoniyatini yaratadi.

Konferensiya va tanlovning asosiy maqsadi, o‘z milliy qadriyatlarimizni hurmat qilish, ularga yangi ilmiy yondashuvlar orqali yangi nafas berish va dunyo miqyosida tanitishdir. Bu jarayonda ishtirok etayotgan barcha tadqiqotchilar va yoshlar, bizning milliy madaniyatimiz va tariximizning nurli istiqboli uchun katta hissa qo‘shayotganligini ta’kidlash zarur.

Ilmiy anjuman, o‘zaro fikr almashish, ilmiy hamkorliklar o‘rnatish, yangi g‘oyalar bilan tanishish va milliy qadriyatlarimizni ilgari surish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Har bir ishtirokchi, bu tanlovda o‘z bilimini, yuksak mahoratini va ijodiy yondashuvlarini ko‘rsatib, o‘z xalqi oldidagi mas’uliyatini yana bir bor his qilishi mumkin.

Biz barcha ishtirokchilarga muvaffaqiyatlar tilab, bugungi tadbirning samarali va foydali bo‘lishini tilaymiz.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

Агабекова Жазира Смайыл қызы	13
Дуйсабаева Дилбар Ускановна ОҚУШЫЛАРҒА СЫН ЕСІМНІҢ ДИДАКТИКАЛЫҚ СИПАТЫН ВИЗУАЛДЫ, ЗАМАНАУИ ТҮРДЕ ОҚЫТУДЫҢ НӘТИЖЕСІ	
Miraxmedova Shoxida Nusratilloevna	18
“TAZKIRAT UL-AVLIYO” VA “NASOYIM UL MUHABBAT” ASRALARINING TAZKIRACHILIK TARIXIDAGI O’RNI VA AHAMIYATI	
Tadjibayeva Ruxshona Oktamovna	25
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “ MUBAYYIN” ASARI NAZMIY SHARHIDA “KOMIL AXLOQ” TIMSOLI	
Xaydarova Mohigul Kayumovna	29
PSIXOLOGNING O’SMIRLAR BILAN ISHLASHDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISH YONDASHUVLARI	
Xojayarov Javohir Obidjon o’g’li	37
PSIXOTERAPIYA VA FARMAKOTERAPIYA INTEGRATSIYASI: RUHIY KASALLIKLARNI DAVOLASHDA KOMPLEKS YONDASHUV	
Xusnora Abdinabiyeva Sherali qizi	44
XUFIYONA IQTISODIYOTNI OLDINI Olish VA UNGA QARATILGAN CHORA TADBIRLAR	
Boynazarov Odil Sharofovich	47
Omonova Aziza Chori qizi SURXONDARYO VILOYATI OCH TUSLI BO’Z TUPROQLARIDA BUXORO- 102 VA PORLOQ-1 G’O’ZA NAVINING SUV-O’G’IT (NPK) ME’YORI SUG’ORISH TARTIBLARI	
Almatov Bekzod Nurmuhammad o’g’li	49
Djumabayeva Salomat Komiljonovna BARQAROR RIVOJLANISH IQTISODIYOTI	
Mehmonova Chinora Ro’ziboy qizi	54
ZAMONAVIY PEDAGOGIKANING ASOSIY TAMOYILLARI VA JADIDLAR QARASHLARI: TARIXIY TAJRIBANING DOLZARBLIGI	
Rustam Astanov	57
OMMAVIY TADBIRLAR JARAYONIDA SODIR ETILADIGAN HUQUQBUZARLIKLARNING KRIMINOLOGIK TAVSIFIGA OID FIKR VA MULOHAZALAR	
Raximov Sherzod Sharibbayevich	62
MUSIQA DARSLARIDA KREATIVLIK VA IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH	
Саркарова Якутхан Ойбековна	67
ИНТЕРАКТИВНЫЙ И ИНОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ И В СТАРШИХ КЛАССАХ ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ	

“TAZKIRAT UL-AVLIYO” VA “NASOYIM UL MUHABBAT” ASRALARINING TAZKIRACHILIK TARIXIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Miraxmedova Shoxida Nusratilloevna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti

“Fakultetlararo ijtimoiy fanlar”

kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Fariduddin Attorning asarlari tahlili, badiiy ijodini yuksakligi, “Tazkirat ul-avliyo” ushbu asari nasrda bitilgan yagona va mashhur asar bo‘lib, unda tasavvuf shayxlari, avliyoullohlarning hayoti, kashfu karomatlari, turli tasavvufiy istilohlar shariat, tariqat, ma‘rifat, tavakkul, rizo, sabr, shukr kabilarga ularning qarashlari, Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarida komil inson timsoli bo‘lgan asarning didaktik mazmunini belgilashi, uning tasavvufiy-irfoniy qarashlari esa asarning ruhiy-ma‘naviy mazmunini va asarda adabiy-badiiy so‘zlarni o‘z urnida mahorat bilan o‘ziga xos uslubda qo‘llanganligi asarning badiiy manba sifatidagi mazmunini belgilab beradi.

Kalit so‘zlar: mashoyih, so‘fiylar, tasavvuf, tazkira, avliyulloh, shariat, tariqat, ma‘rifat, sabr, shukr.

Tazkirat ul-avliyo (1145-1221)–yillarda yashagan sunniy musulmon fors shoiri va so‘fiy tomonidan yozilgan 96 so‘fiy va ularning o‘z ichiga olgan asar. Uning bizgacha yetib kelgan yagona nasriy asari 72 bobdan iborat bo‘lib, hayoti bilan boshlanib, so‘fiy shahid bilan yakunlanadi. Ro‘yxatga to‘rtta mashhur sunniy mazhab asoschilari–ham kiritilgan. Uning arab yozuvli qo‘lyozma nusxalari bor. Uyg‘ur yozuvli nusxasi “Me‘rojnoma” bilan bir qo‘lyozmada Milliy kutubxonada saqlanmoqda.

“Tazkira-yi avliyo” qo‘lyozmaning 13b-151a sahifalarida, matn oxirida kitobning ko‘chirilgan sanasi (ta‘rix)bitilgan. Unga ko‘ra, qo‘lyozmani 1436-yili Abu Malik baxshi ko‘chirgan.

Buyuk mutasavvif shoir, mutafakkir va tazkiranavis Fariduddin Attorning ushbu asari nasrda bitilgan yagona va mashhur asar bo‘lib, unda tasavvuf shayxlari, avliyoullohlarning hayoti, kashfu karomatlari, turli tasavvufiy istilohlar v shariat, tariqat, ma‘rifat, tavakkul, rizo, sabr, shukr kabilarga ularning qarashlari bayon etilgan.

Tazkirada allomalarning o‘z ilmiy-nazariy qarashlari va ta‘limotini asoslash, tasdiqlash maqsadida tarixiy voqealar, hayotiy tajriba, o‘tmish mashoyixlarining ibratli kechmishlari hikoya, masal va naqlar bilan tasnif etilgan

“Nasoyim ul-muhabbat” (“Sevgi shabadalari”)–asari. 1495—1496-yillarda “Nafohat ul-uns” asari ta‘sirida yozilgan. Jomiy asariga tanqidiy qaragan Navoiy asarda ilova qilingan shaxslarning faqat qarashlarinigina yoritmasdan, adabiyot va jamiyatdagi o‘rnini belgilashga ham katta e‘tibor bergan. “Nasoyim ul-muhabbat” Navoiyning didaktik qarashlari,

tarjimonlik va tadqiqotchilik faoliyati hamda estetik qarashlarini o‘rganish uchun muhimdir. “Nasoyim ul-muhabbat”ning ba’zi nusxalari qo‘lyozmalar fondida saqlanadi.

Asarning xotimasi haqida so‘z borar ekan, “Nasoyim ul-muhabbat”ning xotima qismi juda qisqa yozilgan bo‘lib, u qo‘yidagicha tugallanadi: Ilohi bu avliyoullohu qaddasallohu asrorahumning sharif anfosi barakoti haqqi va bu mashoyix ogoh ruhullohu arvohahumning nafis axloqi va sifoti haqqiki, bu kitob mutolaasig‘a mashg‘ul bo‘lg‘an azizlar dimog‘in, mazkur bo‘lg‘an abror muhabbati nasoyimidin muattar va bahramand qilg‘aysen. Va bu xitob mumorasatig‘a mash‘uf bo‘lg‘an ahli tamayyuzlar ko‘nglin mastur bo‘lg‘an axyor futuvvati shamoyimidin munavvar va arjumand etkaysen. Va alarningtufayli roqimning ham tiyra ro‘zgorig‘a safoiy va hirmon zulmatidin qarorg‘an ko‘zlarig‘a hidoyat quyoshidin ziyoyi nasib qilg‘aysen. Va podshoh islomkim, imon ahlig‘a mujib farog‘at va amniyat va zamon xaylig‘a bois rafohiyat va jam‘iyatdurki, bular bo‘lmasa, bu nav' nusxa tartib va tasnifi va bu tavr kutub jam' va ta'lif mutaassir, balki muhol va mutaazzirdur. Sihhat va umr va davlatini muxallad va insof va adolatini muabbad tutqil va adosini maqhur va ahibbosini mansur qilg‘il! Omin, yo Robbil olamin!”

“Tazkirat ul-avliyo”ning manbalari haqida so‘z borar ekan, avvalo shuni aytib o‘tish kerakki, Fariduddin Attorgacha bo‘lgan davrda so‘fiylar agiografiyasi borasida bir qator asarlar yozilgan, ular o‘zidan keyingi davrlar agiografik manbalarning shakllanishida muhim o‘rin tutgan. Jumladan, o‘zidan oldingi manbalarga tayangan holda yozilgan “Tazkirat ul-avliyo” o‘sha davrgacha yaratilgan so‘fiylar hayoti, faoliyati va qarashlari to‘g‘risida hikoya qiluvchi asarlarda to‘plangan boy tajribalarni umumlashtiruvchi kitob sifatida maydonga kelgan.

Asosiy qism. Xususan musannif o‘z asari manbasi sifatida quyidagi uch kitob nomini muqaddimada qayd etadi: “Va agar toliblar bu qavmning so‘zlarining sharhini estasalar, “Sharh ul-qulub”, “Kashf ul-asror”, “Ma‘rifat un-nafs” kitoblaridan topishlari mumkin”. Musannifning bunday ishorasidan biz “Sharh ul-qulub”, “Kashf ul-asror” va “Ma‘rifat un-nafs” kitoblari “Tazkirat ul-liyo”asarini yozishga asosiy manba bo‘lganligini anglashimiz mumkin.

Bundan tashqari turli tadqiqotchilar “Tazkirat ul-avliyo” asarining yozilishida foydalanilgan manbalar to‘g‘risida har xil fikr bildirishgan. Jumladan, eronlik olimlardan Badiuzzamon Furo‘zonfar tomonidan Isfahoniyning “Hiliyat ul-avliyo” va Hujviriyning “Kashf ul-mahjub” asarlari, Muhammad Istie‘lomi tomonidan Sulamiyning “Tabaqt us-sufiya”, Isfahoniyning “Hilliyat ul-avliyo”, Qushayriyning “Risolai Qushayriya” va Hujviriyning “Kashf ul-mahjub” asarlari “Tazkirat ul-avliyo”ning shakllanishida asosiy o‘rin tutgan manbalar sifatida eslatib o‘tilgan bo‘lsa, Mahud Obidiyning fikricha, “Tazkirat ul-avliyo”ning katta qismi “Kashf ul-mahjub” asaridan olingan. Boshqa bir eronlik tadqiqotchi Ahmad Tamimdoriy ham “Tazkirat ul-avliyo”ning aksariyat qismlari bevosita “Kashf ul-mahjub” asaridan olinganini ta’kidlaydi.

Ayrim tadqiqotchilar esa hatto Muhammad G‘azzoliy asarlarini “Tazkirat ul-avliyo” manbalari qatorida sanab o‘tilgan. Biroq Iste‘lomi tomonidan Sulamiy qalamiga mansub “Tabaqot us-sufiya” asari “Tazkirat ul-avliyo”ni yozishda foydalanilgan eng asosiy

manbalardan biri sifatida eslatilar ekan, negadir “Tabaqot us-sufiya”ning Abdulloh Ansoriy tomonidan fors-tojik tiliga qilingan tarjimasi e’tibordan chetda qolib ketadi. Holbuki, Ansoriyning “Tabaqot us-sufiya” va Attorning “Tazkirat ul –avliyo” asarlarida uchraydigan mushtarak qissalar matndagi o‘xshashlik, jumladan, ushbu ikki asarda keltirilgan Fuzayl ibn Iyozning tug‘ilgan joyi va tavbasi (Ansoriy. Tabaqot us-sufiya. 28-b. / Tazkirat ul-avliyo. 90-b.), Ibrohim Adhamning tavbasi va zuhdi (Ansoriy. Tabaqot us-sufiya. 56-b. / Tazkirat ul-avliyo. 104-b.), Zunnun Misriy vafoti (Ansoriy. Tabaqot us-sufiya. 14-b. / Tazkirat ul-avliyo. 158-b.), Abu Hamza Xurosoniyning chohga tushib ketishi (Ansoriy. Tabaqot us-sufiya. 125-b. / Tazkirat ul-avliyo. 551-b.) to‘g‘risidagi qissalarning nafaqat mazmuni, balki ulardagi bayon uslubi, gaplar ketma-ketligi ham diyarli bir ekani Attorning ushbu qissalarni “Tabaqot us-sufiya”ning arabcha aslidan emas, balki Ansoriy tomonidan amalga oshirilgan forsiy tarjimasidan olganini ko‘rsatadi.

Yuqorida nomlari eslatib o‘tilgan manbalarning “Tazkirat ul-avliyo” asari yaratilishidagi o‘rnini inkor etmagan holda mazkur tadqiqotchilardan birortasida “Tazkirat ul-avliyo” va “Sharh at-Ta’arruf” asarlari o‘rtasidagi mushtarak jihatlariga e’tibor berilmaganini eslatib o‘tishga to‘g‘ri keladi.

Eronlik adabiyotshunos Sayida Maryam Ravzotiyon “Sharh at-Ta’arruf” asarining “Tazkirat ul-avliyo”ni yozishda foydalanilgan manbalar orasidagi o‘rniga e’tibor bergan ilk tadqiqotchi bo‘ldi. Ravzotiyon o‘zining Sayyid Ali Asg‘ar Mirboqiriy bilan hammualliflikda yozgan “Sharh at-Ta’arruf”ning “Tazkirat ul-avliyo” manbalari orasidagi o‘rni” nomli maqolasida “Sharh at-Ta’arruf”ning “Tazkirat ul-avliyo” asarlaida 6 so‘fiy – Ibrohim Adham, Boyazid Bistomiy, Robiya Adaviya, Junayd Bag‘dodiy, Abu Bakr Shibliy va Mansuri Halloj hayoti, faoliyati va qarashlari to‘g‘risida ma’lumot beruvchi 12 ta o‘xshash qissa va hikoyat borligi, jumladan, ulardan 6 tasi boshqa tasavvuf manbalarida ham keltirilganligi, qolgan 6 tasi esa faqatgina ushbu ikki asarda mavjudligi to‘g‘risida yozadi. Bundan tashqari, ushbu eronlik tadqiqotchi “Sharh at-Ta’arruf” asarini nafaqat “Tazkirat ul-avliyo”ning muhim manbalaridan biri, balki ushbu asrni yozishda foydalanilgan so‘fiylik manbalari orasida eng asosiysidir degan xulosaga keladi.

“Nasoyim ul-muhabbat”ning manbalari haqida ma’lumot berishdan avval, so‘zimizni muallif oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalarni aniqlashdan boshlashni lozim deb topdik. Sababi aynan mana shu maqsad va vazifalarni samarali amalga oshirish uchun muallif birinchi navbatda mavzuga doir nodir manbalarni tanlashdan boshlaganini uning niyatidan anglash mumkin.

Hazrat Navoiyning “Nasoyim ul –muhabbat”ni yozishdan maqsadi so‘fiylar hayoti va karomatlari haqida agiografik ma’lumot berishning o‘zigina bo‘lib qolmasdan, ushbu asarda tasavvuf nazariyasi va amaliyoti, so‘fiylik axloqi hamda so‘fiylarning tasavvufga doir turli masalalar borasidagi qarashlariga ham to‘xtalib o‘tilgan.

Bu maqsadga erishish uchun Navoiy bir necha vazifalarni bajarishni ham belgilab oldiki, ularni qo‘yidagicha ko‘rsatish mumkin:

- Jomiyning “Nafahot ul-uns” (arab va forsiynasab avliyolar tarixi) asaridan foydalangan holda turkiy kitobxon uchun turkiy tilda o‘sha paytgacha bo‘lmagan turkiycha “avliyolar tarixi”ni yozib berish;

- asarga turkiy avliyolarni ham qo‘shish;
- zamonasining avliyolari, jumladan Jomiyning o‘zini ham qo‘shish;
- uncha muhim bilmagan avliyolarni va faktlarni qisqartirish;
- zikr etilgan shayxlarning ayrimlari haqida qo‘shimcha ma'lumotlar berish.

Mana shunday vazifalarni samarali bajarish uchun foydalanadigan manbalar ham Navoiy e'tiboridan chetga qolmadi.

Foydalangan manbalari:

- “Nafahot ul-uns ” (Abdurahmon Jomiy)
- “Tazkirat ul-avliyo” (Attor)
- “Futuhoti Makkiya” (Muhyiddin Arabiy)
- “Tabaqot us-sufiya” (Ansoriy)
- “Siyar ul-avliyo” (Sayid Muhammad Dehlaviy)
- “Asror ul-avliyo” (Badriddin Ishoq Dehlaviy)
- “Shathiyot” (Shayx Ro‘zbehon Baqliy)
- “Tabaqoti Nosiriy”

Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat”ni yozishda o‘sha davrgacha yaratilgan tasavvufga oid, jumladan, so‘fiylar hayoti, faoliyati va qarashlariga bag‘ishlangan bir necha manbadan foydalangan. Jumladan, uning o‘zi asar muqaddimasida “Nafahot ul-uns”dan tashqari Fariduddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asaridan ham foydalanganini, bundan tashqari, manbalarini ko‘rsatmagan holda Turkiston va Hindistondan etishib chiqqan so‘fiylar haqida ham ma'lumotlar to‘plangani to‘g‘risida eslatgan.

Navoiy chishtiya tariqatining Hindistondagi yirik namoyandalari hayotini yoritishda Sayid Muhammad Dehlaviyning “Siyar ul-avliyo”, Badriddin Ishoq Dehlaviyning “Asror ul-avliyo” (Shayx Farididdin Shakarganj manoqibi), “Tabaqoti Nosiriy” kabi muhim va mo‘tabar manbalarga suyanagan.

Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida Ruvaym, Shayx Ro‘zbehon Baqliy, Muhammad Avoniy ibn ul-Qoid, Abussu‘ud ibn Shabl, Shayx Abu Madyan Mag‘ribiy, Abulabbos bin Arif Sanhojiy Andalusiy, Abu Ishoq bin Zarif, Shayx Muso Sadroniy, Shayx Avhadiddin Homid Kirmoniy. Fotima binti Musannoga bag‘ishlangan fasllarda “Futuhoti Makkiya”dan iqtiboslar keltirilgan.

“Tabaqot us-sufiya” tasavvuf tarixida birinchi tazkira hisoblanib, keyinchalik bu an'anani Imom Yofi'iy, Abu Nuaym, Abdulloh Ansoriy, Farididdin Attor, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy davom ettirishdi.

Garchand Navoiy tazkirasini tuzishda “Nafahot ul-uns”ga tayangan bo‘lsada, lekin asarda kiritilgan qo‘shimcha o‘zgarishlar hamda muallif yondashgan uslubidan “Nasoyim ul-muhabbat” yangicha tartibda tuzilgan asar ekaniga guvoh bo‘lish mumkin. Navoiy asar tartibini Attordan olingan avliyolar haqidagi ma'lumotlar jumladan, Uvays Qaraniy, Habib Ajamiy, Abu Xozim Makkiy, Ataba ibn G‘ulom va boshqalar bilan boshlaydi. Abdurahmon

Jomiyning “Nafahot ul-uns”ida birinchi bo‘lib nomi zikr etilgan Abu Hoshim as – So‘fiy, “Nasoyim ul-muhabbat”da sakkizinchi o‘rinda keladi. “Nafahot ul-uns”da erkak mutafakkirlardan oxirgi 583-tartibda kelgan Shamsiddin Hofiz Sheroziy “Nasoyim ul-muhabbat”da 734-tartibda keladi. Shu va boshqa misollar keltirish bilan ham “Nasoyim ul-muhabbat”ning yangi tartibdagi mustaqil asar deyish mumkin.

“Nasoyim ul-muhabbat”da birinchi manba - bu albatta Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns”asaridir. Bu haqda Navoiyning o‘zi ham “Nasoyim ul-muhabbat”ning kirish qismida “To tarix to‘qquz yuz birdaki, ul tarixdan yigirma yil o‘tub erdi, tengri taolo tavfiqi birla bu ulug‘ ishga ilik urdum va bu azim amrg‘a qalam surdum” deb yozadi. Navoiy Jomiyning “Nafahot ul-uns” asarini tarjima qilish asnosida undan ijodiy foydalanib, bir vaqtning o‘zida uni “Nasoyim ul-muhabbat”ga manba qilib oladi. Jumladan Jomiyning “Nafahot ul-uns”sidagi 616 mashhur kishilardan 556 tasi “Nasoyim ul-muhabbat”ga ham kiritiladi.

Ikkinchi manba - bu Fariduddin Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asaridir. “Tazkirat ul-avliyo”dagi ba’zi mashoyixlar “Nafahot ul-uns”da kiritilmaganligi bois Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” g‘oyasiga muvofiq tarzda o‘z tazkirasiga kiritgan. Bu haqda Navoiyning o‘zi ham “Nasoyim ul-muhabbat”ning kirish qismida “Hazrat Shayx Fariduddin Attor quddisa sirruhu bitgan “Tazkirat ul-avliyo”din ba’zi kibor mashoyixkim, “Nafahotul uns”g‘a doxil bo‘lmaydurlar erdi, har qaysini munosib mahalda doxil qildim” deb yozadi. Ushbu ma’lumotga ko‘ra “Tazkiratul avliyo”dagi 19ta mashhur mashoyixni “Nasoyim ul – muhabbat”ga kiritilgan.

Uchinchi manba - Hind mashoyixlari haqida bo‘lib, unda Hindistonda yashab ijod etgan mashhur mashoyixlar haqida ma’lumotlar beriladi. Navoiy bu haqda “Nasoyim ul-muhabbat”ning kirish qismida “Va hind mashoyixi sharhi hamki, oz mazkur erdi, to mumkin bor, tilab topib, Hazrati Qutbul avliyo Shayx Farid Shakarganj qaddasallohu arvohahumdin so‘ngg‘i mashoyixqacha ilhoq (qo‘shish) qildim” deb yozadi. “Nasoyim ul-muhabbat”da hind mashoyixlari nomi bilan mashho‘r bo‘lgan 84 ta mashhur mashoyix kiritilgan.

To‘rtinchi manba – turkiy mashoyixlari haqida bo‘lib, unda fors adabiyoti tarixida turkiy ijodkorlar haqida kamdan-kam ahamiyat berilardi. Ulardan faqtgina forsiy tilda ijod etganlarigina tilga olinar edi. Hazrat Navoiy esa mana shunday muammoni “Nasoyimul muhabbat” asarida chetlab o‘tmadi. Balki, Navoiy asarni bitishidan maqsadi va asar g‘oyasiga muvofiq turkiy ilm ahllari va mashhur shaxslarni qo‘shish bilan asrni to‘ldirgan. Navoiy qo‘shgan bunday ilm ahllarining ibratli ishlari va odatlari o‘zinig salmog‘i va ahamiyati bilan asarga yangicha g‘oya va mazmun baxsh etadi. Asarning kirish qismida Navoiyning o‘zi ham turkiy mashoyixlar bilan asar manbaini to‘ldirganini shunday “Va turk mashoyixi zikri ham ozroq erdi, ani dag‘i Hazrat Shayxul mashoyix Xoja Ahmad Yassaviy rahimahullohullohdin bu zamong‘acha ulcha mumkin bor, tilab topib, zikrlarin va ba’zi holot va so‘zlarin o‘z mahalida darj qildim” deb qayd etadi. Shu bilan birga asarda Navoiyga zamondosh bo‘lgan, XV asrda yashab ijod etgan mashhur shaxslar ham kiritiladi. Jumladan, Abdurhmon Jomiy, Lutfiy, Muhammad Tabodgoniy va boshqalarni kiritgan.

Xulosa qilib aytganda, Shayx Attor hamda Navoiy bobomiz asarlari - Haq va haqiqatning mangu barhayot taronalaridir. Ularning asrlar osha insonlar qalbini zabt etib, ardoqlanib, sevib o‘qilayotgani sababi ham shunda. Shu tufayli shoirning ijodiy faoliyati evolyutsiyasiga tarixiy-sinergetik uslubda yondashuv uning ijodidagi hali bizga noma’lum bo‘lgan qirralarini aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat ” Movarounnahr nashriyoti T., 2017. 538-539B.
2. Sayyida Maryam Ravzotiyon, Sayyid Ali Asg‘ar Mirboqiriy. “Sharh at-Ta’arruf”ning “Tazkirat ul-avliyo” manbalari orasidagi o‘rni. – B.9-28.
3. Fariduddin Attor “Tazkirat ul-avliyo” T., G‘afur G‘ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2017. 7-B.
4. Furo‘zonfar Badiuzzamon. Shayx Fariduddin Muhammad Attor Nishopuriy hayoti va asarlari tadqiqi (fors tilida). -Tehron, 1995.-B.87-88.
5. Komiljon Rahimov. Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta’limotining shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar) Toshkent “Akademnashr” 2020. B. 233-234.
6. Qarang: Hujviriyy, Ali ibn Usmon. Kashf ul-mahjub (fors tilida) / Mahmud Obidiy tahriri ostida. – Tehron: Surush,2007. Muharrir so‘zboshisi. – B.12, 30.
7. Komiljon Rahimov. Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta’limotining shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar) Toshkent “Akademnashr” 2020. B. 234.
8. Komiljon Rahimov. Movarounnahr tasavvufi tarixi: ta’limotining shakllanishi va tizimlashtirilishi (VIII-XI asrlar) Toshkent “Akademnashr” 2020. B. 234.
9. Shayxulislom Xoja Abdulloh Ansoriy Xiraviy. Tabaqot us-sufiya (fors tilida) /Tahrir, izohlar va ilovalar muallifi Abulhay Habibiy.–Kobul: Davlat matbaasi, 1962
10. Ansoriyning “Tabaqot us-sufiya” va Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asarlaridagi so’fiylar to’g’risidagi mushtarak qissalarning ushbu asarning qaysi sahifalarida joylashganligini k̐rsatishda “Tabaqot us-sufiya”ning 1962 yili Kobul davlat matbaasida hamda “Tazkirat ul-avliyo”ning 2003 yili Tehronning “Zuvvor” nashriyotida chop etilgan nashrlari asos qilib olindi.
11. Ravzotiyon, Sayida Maryam. Ishqnig etti shahri. Attor Nishopuriyning “Tazkirat ul-avliyo” asari tanqidiy tahlili borasidagi ilmiy loyiha axboroti (fors tilida). – Isfahon: Universitet, 2010;
12. Sayyida Maryam Ravzotiyon, Sayyid Ali Asg‘ar Mirboqiriy. “Sharh at-Ta’arruf”ning “Tazkirat ul-avliyo” manbalari orasidagi y̐rni. – B.14-26.
13. O’sha asar. – B. 27.
14. Komilov N. Tasavvuf. – B.300; Ishoqova Z. Tasavvuf ta’limotida oriflik va valiylik talqini. – B.18, 45.
15. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. Mukammal asarlar t̐ylami. Yigirma tomlik. O’n yettinchi tom / Nashrga tayyorlovchilar: S. G‘anieva, M. Mirzaahmedova.

Arabcha va forsha matnlarni tarjima qilib, nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir: S. Rafiddinov. – Toshkent: Fan, 2001. –B.5.

16. Alisher Navoiy qomusiy lug‘at. Birinchi jild. “SHARQ “ nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati T; -2016. B.414-415.

17. Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat ” Movarounnahr nashriyoti T., 2017. 27-B.

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “MUBAYYIN” ASARI NAZMIY
SHARHIDA “KOMIL AXLOQ” TIMSOLI**

Tadjibayeva Ruxshona Oktamovna

*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti, “Gumanitar fanlar kafedrası”,
“Fakultetlararo ijtimoiy fanlar” kafedrası o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining muhim diniy-didaktik manbalaridan biri bo‘lgan “Mubayyin” asarining nazmiy bayonida “komil axloq” timsolining badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Unda axloqiy yetuklik, sabr-toqat, halollik, tavo‘ze, ilmga intilish, jamiyatga xizmat qilish kabi fazilatlar muallif tomonidan Qur‘on oyatlari, hadislar va tasavvufiy qarashlar asosida yoritilgan. Asardagi badiiy obrazlar, poetik vositalar, diniy-ma‘naviy g‘oyalar orqali komil inson timsoli shakllantirilgan. Shuningdek, maqolada “Mubayyin” asarining zamonaviy axloqiy-ma‘rifiy tarbiyadagi o‘rni ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Mubayyin, komil axloq, diniy-didaktik asar, tasavvuf, axloqiy tarbiya, komil inson, sabr, halollik, badiiy timsol, Qur‘on, hadis, o‘zbek mumtoz adabiyoti.

Sharq adabiyoti va islomiy-falsafiy tafakkur tarixida axloqiy kamolot, komil inson timsoli va ma‘naviy tarbiya masalalari doimo markaziy o‘rinni egallab kelgan. Ayniqsa, diniy-didaktik yo‘nalishdagi asarlar orqali komil axloq tushunchasi chuqur talqin etilgan. Ushbu asarlar nafaqat diniy aqidalarni bayon etgan, balki jamiyat a‘zolarining axloqiy-ma‘naviy yuksalishiga xizmat qilgan. O‘zbek mumtoz adabiyotida bu yo‘nalishda yaratilgan ko‘plab asarlar mavjud bo‘lib, ular orasida “Mubayyin” asari alohida ahamiyat kasb etadi.

“Mubayyin” asari diniy-ma‘rifiy mazmundagi nazmiy asar bo‘lib, unda muallif o‘z davrining axloqiy va ma‘naviy hayotiga daxldor dolzarb masalalarni ko‘taradi. Asar nomi arab tilidan olingan bo‘lib, “bayon qiluvchi”, “ravshanlovchi” ma‘nolarini anglatadi. Bu nom asarning mazmuniga to‘liq mos bo‘lib, unda axloqiy poklik, nafsni tarbiya qilish, sabr-toqat, halollik, kamtarlik kabi insoniy fazilatlar keng yoritiladi. Asarning asosiy g‘oyasi — komil inson timsolini yaratish orqali jamiyatning axloqiy-me‘yoriy negizlarini mustahkamlashdan iborat.

Komil axloq timsoli, ayniqsa, islomiy tafakkurda “komil inson” konsepsiyasi orqali keng o‘rin olgan bo‘lib, bu tushuncha Qur‘oni karim oyatlari, Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) siyrati, hadislar va tasavvufiy ta‘limotlarga tayanadi. Mumtoz adabiyotimizda bu g‘oya badiiy obrazlar vositasida keng targ‘ib etilgan. “Mubayyin” asarida esa bu g‘oya diniy asoslar bilan uyg‘un holda, nazmiy shaklda ifoda etilib, o‘quvchini axloqiy o‘zgarish va o‘zini tarbiyalash sari undaydi.

Asarning nazmiy tili sodda, ammo chuqur ma‘noli bo‘lib, undagi didaktik mazmun badiiy vositalar orqali jonli va ta‘sirchan tarzda yoritilgan. Komil axloq timsoli asarda nafaqat nazariy qarash sifatida, balki amaliy hayotda amal qilinishi lozim bo‘lgan xulqiy